

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA SARLAVHA POETIKASI

Muqaddas Zayniddinova OLTINOVA

mustaqil izlanuvchi

Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot universitet

Toshkent, O'zbekiston

muqaddaszayniddinova@gmail.com

Аннотация

Ushbu maqolada Nazar Eshonqul hikoyalarida sarlavhaning badiiy-estetik funksiyasi, xususan, antitetik (tazod asosiga qurilgan) sarlavhalarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan bir qancha hikoyalar misolida sarlavha va mazmun o'rtasidagi ichki qarama-qarshiliklar ochib berilgan. Sarlavhaning nafaqat nomlash, balki asar g'oyasini chuqur ifodalovchi poetik vosita ekani asoslangan. Shuningdek, metaforik va antitetik sarlavhalar tasnifi berilib, ularning badiiy tafakkurdagi o'rni yoritilgan. Tahlillar natijasida yozuvchining individual uslubi, ko'p qatlamli ma'no yaratish mahorati aniqlangan.

Tayanch so'zlar: antiteza, tazod-sarlavha, metaforik sarlavha, badiiy konsepsiya, ramziylik, kinoya, poetik funksiya, sarlavha poetikasi, modernizm, badiiy tafakkur, mazmun va shakl, ko'p ma'nolilik, ramziy obraz, muallif uslubi.

ПОЭТИКА НАЗВАНИЙ В РАССКАЗАХ НАЗАРА ЭШОНКУЛА

Мукаддас Зайниддинова ОЛТИНОВА

независимый исследователь

университет языка и литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

muqaddaszayniddinova@gmail.com

Аннотация

В данной статье анализируется художественно-эстетическая функция названия в рассказах Назара Эшонкула, в частности, особенности антитетических (основанных на контрасте) названий. Автор выявляет внутренние противоречия между названием и содержанием на примере нескольких рассказов. Исследование основано на том факте, что название является не только средством именованья, но и поэтическим инструментом, глубоко выражающим идею произведения. Также дается классификация метафорических и антитетических названий и подчеркивается их роль в художественном мышлении. В результате анализа раскрываются индивидуальный стиль писателя и его мастерство в создании многослойного смысла.

Ключевые слова: антитеза, антитеза-название, метафорическое название, художественная концепция, символизм, ирония, поэтическая функция, поэтика названия, модернизм, художественное мышление, содержание и форма, многозначность, символический образ, авторский стиль.

Badiiy asarda sarlavha muhim poetik komponentlardan biri bo‘lib, u nafaqat asarni nomlash vazifasini bajaradi, balki uning mazmun-mohiyatini anglashda kalit vazifasini ham o‘taydi. Zamonaviy o‘zbek nasrida sarlavhaning semantik va estetik imkoniyatlari kengayib, u mustaqil badiiy birlik darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, Nazar Eshonqul ijodida sarlavha tanlash masalasi alohida e‘tiborni tortadi. Yozuvchi asarlarida sarlavhalar ko‘pincha ramziy, metaforik yoki antitetik xarakterga ega bo‘lib, ular matn ichidagi yashirin ma‘nolarni ochishda muhim vositaga aylanadi. Maqolada aynan antiteza asosiga qurilgan sarlavhalar, ya‘ni mazmun bilan tashqi jihatdan zid bo‘lgan, ammo shu qarama-qarshilik orqali asar g‘oyasini ochib beradigan sarlavhalar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sarlavha va matn o‘rtasidagi ziddiyat, kinoyaviylik, ramziylik hamda ijtimoiy-falsafiy mazmun masalalari yoritiladi. Shuningdek, yozuvchining individual uslubi va modernistik tafakkur bilan bog‘liq jihatlar ham ko‘rib chiqiladi.

Badiiy antiteza asosiga qurilgan sarlavhalar – mazmun bilan tashqi jihatdan zid, ammo aynan shu qarama-qarshilik orqali asar g‘oyasi ochiladigan sarlavha turidir. Bu kabi ziddiyat ikki xil bo‘lishi mumkin:

Asar – sarlavha o‘rtasidagi qarama-qarshilik, ya‘ni asarda hikoya qilinayotgan voqea bilan sarlavha o‘rtasida zid ma‘no yuzaga keladi. Bu tur sarlavha hikoya zamirida achchiq kinoya yotishi xususiyati bilan kinoya-sarlavhaga mazmunan o‘xshab ketadi, sarlavha mohiyatiga hikoya mutolaasidan so‘ng yetiladi. Yuqoridagi xususiyatlarni hisobga olgan holda tadqiq qilinsa, Nazar Eshonqulning “Ozod qushlar” hikoyasi ham kinoya-sarlavhaga ega. Hikoya qahramonlari roviy tomonidan murojaat qilinayotgan Sen hamda qahramon uyida paydo bo‘lgan notanish Ayol. Hikoya syujetining o‘ziga xos usulda yozilganligi bilan ham ajralib turadi. *“Hayot mo‘jizalardan iborat ekanligiga sen ham ishonarding. Sen ham bu asrdan mo‘jiza kutib yasharding. Holdan toyib ishdan qaytar ekansan, kichkinagina mu‘jaz uyingda to‘shakka cho‘zilganicha, yolg‘izlik saltanatiday ko‘rimsiz, huvillagan xonangda qandaydir mo‘jiza ro‘y berishini kutib yasharding. Bu mo‘jiza bir necha daqiqadan so‘ng yuz beradiganday o‘z xayollaringdan o‘zing lazzatlanarding. Sen mo‘jizasiz ham baxtli eding.”* Hikoya

bosh qahramoni ishdan uyga qaytayotganda bir ayolni ko'rib qoladi: *"Sen ayolning bu shaharlik emasligini sezganding; ayolning yuzi so'lim, tiniq va oppoq edi. Ko'nglingda mehmonni ko'rganda tug'iladigan mezbonlik tuyg'ulari jo'sh urib ketgandi. Ayol bizning ko'chaga adashib kirib qolgan bo'lsa kerak degan o'yga borganding."* Qahramon yo'lda ketar ekan ayolning go'zalligiga mahliyo bo'lib uning kimligiga qiziqadi, shu bilan birga bu savollar kitobxonni ham o'z domiga tortadi. Shu yerda hikoyaning tuguniga duch kelamiz. "Bu ayol kim? U qayerdan paydo bo'ldi va qayerga ketyapti?" degan savollar bilan hikoyani o'qir ekansiz, qahramonning bergan savollariga Ayolning *"...shu yerlikman", "shu ko'chada yashayman", "Men shu yerda tug'ilganman. Ota-onam ham shu yerda yashashgan"* deya javob berishi savollarimizni yanada kuchaytiradi va shu paytda na bosh qahramon, na kitobxon kutmagan hodisa ro'y beradi. *"— Mana shu mening uyim, – dedi ayol ham tantanavor, ham xayrlashgan ohangda. Sen jilmayding. Ayol seni yashaydigan bu uyni biladi va hazil qilyapti, deya o'ylading. Lekin ayolning harakatlari qat'iy edi. U rostdan shu uyda yashaydigandek tutardi o'zini. Shunda esingga hamisha biron g'aroyib voqealar o'ylab yuradigan oshnolaring tushdi va da'fatan miyanga ayolni tag'in ular jo'natgan bo'lmasin, degan fikr kelib qoldi. Ayolning ko'zlaridan hozirgina otilib, keyin sochilib ketadigan hazilning ko'rinishlarini izlay boshlading. Biroq ayol hamon jiddiy, aftidan, hecham hazillashgisi kelmayotganday senga sinovchan tikilib turardi. Uning kibrli va maftunkor ko'zlaridan, chiroyli, oppoq yuzlaridan, zaharxandalik bilan qimtib olgan lablaridan atrofga yot bir malohat taralardi. Ayol sumkasidan xuddi sening qo'lingdagidek kalit chiqarib, eshikni ocha boshlagach, bir zum esankirab qolding"*. Bosh qahramonning uyi va ayolning uyi bitta bo'lib chiqadi. Qahramonimiz har qancha urinmasin uyidan o'ziniki ekanligini bildiradigan hech bir narsa topa olmaydi. Unda hikoyadagi roviy kim? *"O'sha kuni Q. maydonida kabutarlarga don sepib, ularni orzumand va mastona kuzatib, yuzida azob va iztirob aks etib turgan parishon yigit senmidning yoki menmidim? Balki men kabutarlarga don sepayotganda va so'ng kimsasiz ko'chaga qorong'ulik qo'yniga singib ketganimda izimdan shafqat va achinish bilan qarab qolgan sendirsan,*

kaptarlarning qanotlaridan mening orzularimni o'qimoqchi bo'lgan ham va kabutarlarning kichkina, hushyor ko'zlarida o'qilib turgan ham balki sendirsan?"

Keltirilgan parchadan ushbu savolimiz ozgina oydinlashadi. Hikoyani bizga so'zlab berayotgan ham, hikoyadagi bosh qahramon ham aslida bitta inson emasmikan?! Axir, modernizm adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri ichki menni anglash, insonning ichki munozaralari, bahslari, iqrorlarini namoyon qilish bilan ajralib turmasmidi? Xuddi shunday. *"Shundan so'ng men sen haqingda turli mish-mishlar eshita boshladim. Seni kimdir mast odamlarga qo'shib, yer osti yo'llarida tunab yurganingni aytdi. Kimdir esa seni vokzalda yotib yuribdi dedi. Keyin esa ish joying yotoqxonasidan joy berdi. Sen haqingda men boshqa hech narsa eshitmadim. Kimdir seni uzoq joyga qurilishga ketgan dedi. Kimdir cho'lga ketgan dedi"*. Hikoya qahramoni uyi bilan birgalikda o'zligidan ham ayrildi. Hikoya qahramonlari "men, sen" deya atalganining sababi bu o'sha davrda o'sha muhitda yashagan har kim edi. Hikoya tarixga ishora emasmikan? Qoniga "Mehmon otangdek ulug'" maqoli singib ketgan oxir-oqibatda yillar mobaynida o'z vatanida sig'indidek yashagan xalqning holi ham hikoya qahramonidek, nazarimda. Yozuvchi ham aynan mana shu holat tasvirini hikoya orqali bizga yetkazib bergan. Yuqorida keltirganimiz xususiyatlardan biri, ya'ni o'sha davrdagi butun jamiyatga aloqador muammo – o'z uyidan bir zumda ayrilish voqealari metaforik usulda aks ettirilgan. Jamiyatdagi shaxslar nafaqat uyidan, balki ona yurtidan, ozodligidan ayrilgan edi. Hikoya 1988-yilda yozilgani ham fikrimizni yanada qo'llab-quvvatlaydi. Hikoyaga berilgan sarlavha hikoya mutolaa qilinib bo'lgach o'z ma'nosini ochadi. Nazar Eshonqul hikoyalariga sarlavha tanlashda ham o'zgacha mahorat va did egasi ekanligini namoyon etadi. Hikoya qahramonlari orqali ishora qilingan shaxslar aslida ozod emas. Jumladan, "Ajr" hikoyasi zamirida, asosan, gunohkor insonlar tasvirlangan bo'lsa, "Muolaja" hikoyasida esa davolash nomi bilan yashiringan aslida nosog'lomlashtirish hikoya qilinadi.

Tazod-sarlavha – sarlavha tarkibidagi soʻzlar ikki tushunchaning ziddi oʻlaroq vujudga keladi. “Ogʻriq lazzi” hikoyasi shu tur sarlavhali hikoyalardan. “*Mabodo birontasi figʻon qilishdan toʻxtab qolsa, xuddi aybdordek, yaralar behad azob berayotgan sheriklariga hasad aralash koʻz tashlar va nazoratchilarni imlardi; nazoratchi qoʻlida qamchi bilan yetib kelar va koʻkara boshlagan, yaralar ustidan savalashga tushardi.*” “O gʻ r I q l z z a t i” hikoyasida turli jismoniy azoblar, och-nahor, butun tanasi yara-chaqalarga toʻlgan va shuncha azobga qaramay yuzida mungli tabassum aks etgan mahbuslar tasvirlangan. “...ogʻriq kuchaygan sayin bu tabassum butun yuzni egallab olardi”. H. Karimov esa bu hikoyani ikki xil talqin qilish fikrini ilgari suradi. Bu tahlil quyidagicha:

<i>Dunyoviy</i>	<i>Diniy</i>
Jamiyatda roʻy berayotgan voqea-hodisalar mohiyatini teran idrok etishga qodir shaxslarning iztirobi inkishof etilgan	Yorugʻ dunyo azoblariga bardosh berishlik Allohning sinovidan oʻtib, oxirat saodatiga erishmoqlikdir.

Birinchi tahlil, yaʼni dunyoviy jihatdan talqin qiladigan boʻlsak, hikoyada tasvirlangan azoblash, ogʻriq, tomoshabin – bularning barchasi ramziy ifodalardir. Bu yerda yozuvchi ijodiga xos boʻlgan siyosiy tuzum tasviri aks ettirilgan, yaʼni inson haq-huqulari himoya qilinmagan, fuqaro birinchi oʻringa qoʻyilmagan har qanday jamiyat, tuzum xohlaymizmi-yoʻqmi insonni mana shunday azobga giriftor etadi. Bolsheviklar kommunistik partiyasi ham bundan mustasno emas. Toʻrtinchi mahkum tasviri fikrimizni dalillaydi: “*Bu yuzda haqorat va xoʻrlikdan, musibat va alamdan asar ham yoʻq, labining chetidagi tabassum esa hayotining qorongʻi koʻchalaridaqolib ketgan, oʻsha olis dorilomon kunlarning bir siniq parchasi...*” Keyingi diniy talqin esa nisbatan kengroq hamda nisbatan umuminsoniyroq. Qurʼoni karimdan bizga maʼlumki, Odam (a.s) va Momo Havo biz yashayotgan, dunyoviy tashvishlariga, hoy-u havaslariga berilganimiz tufayli bu dunyoga jazolanish uchun quvilgan edi. Shundan boshlab Odam (a.s) avlodlariga yerda Jannatga munosib boʻlish uchun amallar qilishi vojib boʻldi. Asarda keltirilgan quyidagi parchani bu oliy haqiqatga ishora sifatida talqin qilinsa boʻladi: “...ogʻriq-farogʻatidan soʻng ham mahkumning biz turgan zaminga qaytib

tushmaganini angladik – u narigi yoqda lazzat yurtida qolgan edi – uning jonsiz tanasi ham san’at asariga aylangan...” Xulosa shuki, inson hayotining o‘zi azoblanishdan, yana bu azoblarni sevib yashashdan iborat. Ya’ni “Og‘riq lazzati” hikoyasida keltirilgan azob, og‘riq lazzati asli – yashash, butun insoniyat qismatidagi o‘zgartirib bo‘lmas taqdiri oliydir. Inson dunyoga keldimi bu azoblanishdan o‘tishga mahkum. Shu o‘rinda hikoyaning yozilgan vaqti e’tiborni tortadi. 1990-yil. 72 yil hukm surgan kommunistlar partiyasining asl yuzi fosh bo‘lib, hokimiyati barham topgach ham bu partiyaning hayrixohlari mahkumligicha qolib, kommunistlar g‘oyasini qo‘llab-quvvatlab, qumsab yashagani bizga ayon. Hikoyadagi detal va parchalarni tahlil qilar ekansiz, yuqorida keltirilgan ikki talqinga ham mos tushadigan tasvirlarga duch kelasiz, bu esa yozuvchi mahoratini va hikoyaning ko‘p ma’nolilik xususiyatini belgilaydi. Komiljon Hamrayev tazod-sarlavhani tahlil qilar ekan, bu tur sarlavhalarning yana bir xususiyatini berib o‘tadi: “Tabiat tasviri yozuvchining badiiy g‘oyasini ifodalovchi eng muhim vositaga aylanadi hamda hikoya personajlarining ruhiyatidagi evrilishlar tabiat hodisalariga qiyoslanadi.” “Og‘riq lazzati” hikoyasida tabiat hamda qahramon ruhiyati tasviri parallel ravishda uchramaydi, ammo hikoya syujeti, ya’ni tasavvur qilib bo‘lmas og‘riqlarga mahkumlar va tomoshabinlarning munosabati, nazoratchilarning bu vazifani san’at sifatida qabul qilishlari, bu og‘riqlardan mahkumlarning rohatlanishi hikoya mazmunida zid tushuncha hosil qiladi.

Tahlillardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Komiljon Hamrayev o‘z monografiyasida qayd etilgan xususiyatlarga ega sarlavhalar (detal-sarlavha: “Haykal”, “Yalpiz hidi”, “Xazonrez”, “Bahor gullari”) ham uchraydi. Nazar Eshonqul hikoyalarga nom berishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri asar qahramoni nomi orqali, detal yoki voqea orqali nomlashdan qochadi. Nazar Eshonqul asarlarida har bir detal, obraz hamda syujet ramziy ma’no tashigani kabi sarlavha ham alohida funksiyaga ega.

Metaforik sarlavha	Antitetik sarlavha
---------------------------	---------------------------

“Tobut”	“Ajr”
“Qultoy”	“Ozod qushlar”
“Farishta”	“Muolaja”
“Ochilmagan eshik”	“Og‘riq lazzati”
“O‘pqn”	
“Bitik”	
“Qatl”	
“Bepoyon osmon”	
“O‘lik mavsum”	
“Zulmat saltanatiga sayohat”	
“Bevaqt chalingan bong”	
“Shamolni tutib bo‘lmaydi”	
“Maymun yetaklagan odam”	

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Nazar Eshonqul hikoyalarida sarlavha oddiy nomlash vositasi emas, balki asarning badiiy konsepsiyasini ifodalovchi muhim poetik unsurdir. Ayniqsa, antitetik sarlavhalar orqali yozuvchi voqelik va mazmun o‘rtasidagi ichki ziddiyatlarni ochib beradi, o‘quvchini chuqurroq mushohadaga undaydi. “Ozod qushlar”, “Og‘riq lazzati”, “Muolaja” kabi hikoyalarda sarlavha va mazmun o‘rtasidagi qarama-qarshilik asarning asosiy g‘oyasini anglashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yozuvchi sarlavha tanlashda an’anaviy usullardan qochib, ramziy va ko‘p ma’noli ifoda yaratishga intiladi. Bu esa uning individual uslubini belgilovchi muhim omillardan biridir. Umuman olganda, Nazar Eshonqul ijodida sarlavha badiiy tafakkurning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lib, asarning mazmuniy va estetik qiymatini yanada boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов Х. Истиклол даври адабиёти. – Тошкент: Yahgi nashr, 2010. – 171 б.
2. Ҳамраев К. Ҳикоя композицияси: монография. – Тошкент, 2020. – 139 б.

3. Эшонкул Н. Сайланма I: ҳикоялар. – Тошкент: Академнашр, 2022. – 198 б.